

DAVLAT ARXIV HUJJATLARIDA FARG‘ONA QISHLOQ HAYOTI (1945–1965-YILLAR)

Abdullayeva Mohigul Farhodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat arxiv hujjatlari hamda ilmiy tadqiqotlar asosida 1945–1965-yillarda Farg‘ona vodiysi qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qishloq xo‘jaligi, kolxoz tizimi, pensiya ta‘minoti, ayollar mehnati, turar joy qurilishi va arxiv tizimining rivojlanishi yoritilgan. Arxiv manbalari asosida urushdan keyingi davrda Farg‘ona qishloqlarida yuz bergan o‘zgarishlar ilmiy jihatdan tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, davlat arxivi, kolxoz, pensiya tizimi, qishloq hayoti, turar joy qurilishi, sovet siyosati.

1925-yilda Farg‘ona viloyati arxiv byurosi sifatida faoliyat boshladi. Bu arxiv muassasasi 1927-yili Farg‘ona va Andijon okruglararo arxivi sifatida faoliyat yuritgan. 1938-yili Farg‘ona viloyati tashkil etilgach, Farg‘ona viloyati arxiv boshqarmasi tuzildi. Farg‘ona viloyati arxiv boshqarmasi 1940-yildan boshlab, Farg‘ona viloyati davlat arxivi deb qayta nomlandi. Farg‘ona viloyati tarixi jamg‘armasida Farg‘ona shahri, Namangan va Andijon viloyatlari tarixiga oid hujjatlar mavjud. Shuningdek, Farg‘ona viloyati ishchi-sovet, soldat va dehqonlari xo‘jaliklari jamg‘armasida shu viloyatlardagi sovet hukumatining o‘rnatilishi, Farg‘ona viloyati boshqaruv tizimi, madaniy qurilish, ocharchilikka, ishsizlikka, xotin-qizlarni jamoat ishlariga jalb qilishga oid hujjatlar saqlanadi. Farg‘ona vodiysi qadimdan aholisi zich joylashgan, dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlangan hududlardan biri hisoblanadi. Bu hududning qishloq hayoti, xalq turmushi va iqtisodiy faoliyati haqida muhim ma‘lumotlar davlat arxiv hujjatlarida saqlanib qolgan. Arxiv materiallari tarixni o‘rganishda ishonchli manba bo‘lib, ular orqali o‘sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish mumkin.

Davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar Farg‘ona qishloqlaridagi yer-suv munosabatlari, dehqonlar faoliyati, sug‘orish ishlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hamda aholining kundalik hayoti haqida qimmatli ma‘lumot beradi.

Farg‘ona vodiysi qadimdan sug‘orma dehqonchilik rivojlangan hududlardan biri hisoblanadi. XX asrning o‘rtalariga kelib, ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda qishloq xo‘jaligi, kolxoz tizimi va aholi turmush tarzida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Ushbu davr tarixini o‘rganishda davlat arxiv hujjatlari muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Farg‘ona viloyatida arxiv tizimining shakllanishi XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. 1920-yil 29-maydagi Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Komitetining “Arxiv ishini tashkil etish va markazlashtirish” haqidagi dekretiga muvofiq Farg‘ona viloyati bo‘yicha arxiv boshqarmasi tashkil etilgan [3].

Mazkur qaror viloyatdagi tarixiy hujjatlarni markazlashgan holda saqlash imkonini yaratdi. Keyinchalik Farg‘ona viloyat davlat arxivi tashkil etilib, unda qishloq xo‘jaligi, kolxozlar faoliyati, turar joy qurilishi va aholi turmushiga oid muhim hujjatlar jamlandi.

Qishloq xo‘jaligi va kolxoz tizimi. Arxiv hujjatlarida Farg‘ona vodiysi aholisi asosan dehqonchilik bilan shug‘ullangani qayd etilgan. Hududning tabiiy sharoiti paxtachilik, bog‘dorchilik, pillachilik va chorvachilik rivojlanishiga imkon yaratgan. Ayniqsa, paxta yetishtirish qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan.

XX asr boshlariga oid arxiv ma‘lumotlarida ekin maydonlarining kengayishi, yangi sug‘orish tarmoqlarining qurilishi hamda mehnat taqsimoti haqida ma‘lumotlar uchraydi. Katta Farg‘ona kanalining qurilishi qishloq xo‘jaligi rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Natijada yangi yerlar o‘zlashtirilgan va hosildorlik oshgan.

Urushdan keyingi davrda Farg‘ona vodiysi qishloqlarida paxtachilikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Kolxozlarda mehnat “mehnat kuni” asosida baholanib, ish haqi ko‘pincha natural mahsulot shaklida berilgan .

1950-yillarning o‘rtalaridan boshlab kolxozchilar mehnatini pul shaklida rag‘batlantirish tizimi joriy qilina boshlandi. 1965-yilga kelib 250 mingdan ortiq qishloq xo‘jaligi ishchilari oshirilgan ish haqi tizimidan foydalangan.

Kolxozlarni yiriklashtirish siyosati ham qishloq xo‘jaligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. 1950-yilda O‘zbekiston SSRdagi 1770 ta mayda kolxoz o‘rnida 752 ta yirik kolxoz tashkil etilgan [2].

Farg‘ona vodiysining Qo‘qon, Marg‘ilon va Andijon hududlarida paxtachilikka ixtisoslashgan kolxozlar tashkil etilib, sug‘orish tizimlari kengaytirildi. Natijada yangi yerlar o‘zlashtirilib, hosildorlik oshdi.

Farg‘ona vodiysida suv masalasi qishloq hayotining muhim qismi hisoblangan. Arxiv hujjatlarida ariq va kanallarni ta‘mirlash, suv taqsimoti hamda miroblar faoliyati haqida ma‘lumotlar mavjud. Suvdan foydalanish tartibi maxsus qoidalar asosida olib borilgan.

Yer egaligi masalasida ham turli o‘zgarishlar kuzatilgan. Ayrim davrlarda katta yer egalari ustunlik qilgan bo‘lsa, keyinchalik sovet davrida kolxoz va sovxoz tizimi joriy etilgan. Bu esa qishloq aholisining turmush tarziga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

Shuningdek, mazkur davrda qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash jarayoniga ham katta e‘tibor qaratilgan. Traktor, paxta terish mashinalari va boshqa texnik vositalarning kolxozlarga olib kirilishi mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilgan. Biroq texnika vositalari barcha xo‘jaliklarga bir xil taqsimlanmaganligi sababli ayrim hududlarda hanuz qo‘l mehnati ustun bo‘lib qolgan. Ayniqsa, paxta yig‘im-terimi mavsumida aholining deyarli barcha qatlamlari, jumladan o‘quvchilar va ayollar ham dalaga jalb qilingan. Bu esa qishloq aholisi kundalik hayotining qishloq xo‘jaligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Pensiya tizimi va qishloq aholisi turmushi. Urushdan keyingi yillarda qishloq aholisining turmush darajasi og‘ir bo‘lgan. Ayniqsa, kolxozchilar uzoq vaqt davomida davlat pensiya tizimidan foydalana olmagan.

1965-yil 1-yanvardan “Kolxozchilarni pensiya bilan ta‘minlash to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirib, minglab qishloq aholisi ilk bor davlat pensiyasini ola boshladi. Farg‘ona vodiysining Yazyovan, Buvayda, Shohimardon va Oltiariq hududlarida 1961-yilga kelib 13 mingdan ortiq kolxozchi davlat pensiyasi bilan ta‘minlangan [2]. Pensiya tizimining joriy qilinishi qishloq aholisi ijtimoiy himoyasini kuchaytirib, nogironlar, urush qatnashchilari va yolg‘iz ayollar uchun moddiy yordam imkoniyatini yaratdi.

Qishloq aholisi turmush tarzida milliy qadriyatlar va an'analar ham muhim o'rin egallagan. Oilalarda ko'p avlodli yashash an'anasi saqlanib qolgan bo'lib, bir hovlida bir necha oila istiqomat qilgan. To'y, hashar va mavsumiy mehnat jarayonlari qishloq aholisining o'zaro birdamligini mustahkamlovchi omillardan biri bo'lgan. Shu bilan birga, iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, aholi orasida hunarmandchilik, chorvachilik va tomorqa xo'jaligi orqali qo'shimcha daromad topishga intilish kuchaygan.

Ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishi qishloq aholisi ongida davlatga nisbatan ishonchning kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, keksalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga moddiy yordam ko'rsatilishi qishloq oilalaridagi iqtisodiy yukni ma'lum darajada kamaytirgan. Shu bilan birga, pensiya miqdorining kamligi sababli ko'plab pensionerlar tomorqa xo'jaligi yoki qarindoshlar yordamiga tayanishga majbur bo'lgan.

Arxiv manbalarida qishloqlardagi maktablar, masjidlar, mahalla tizimi va oilaviy munosabatlar haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Odamlar asosan milliy urf-odat va an'analar asosida yashaganlar. To'y, hashar va mavsumiy bayramlar qishloq hayotining ajralmas qismi bo'lgan.

Sovet davrida savodxonlikni oshirish, yangi maktablar ochish va ayollar faolligini kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilgan. Bu jarayonlar arxiv hujjatlarida o'z aksini topgan.

Ayollar mehnati va ijtimoiy hayot. Urushdan keyingi davrda ayollar qishloq xo'jaligining asosiy ishchi kuchiga aylandi. Ayollar paxtachilik, pillachilik, bog'dorchilik va chorvachilik sohalarida faol mehnat qilgan.

1954–1955-yillarda Farg'ona vodiysi kolxozlarida davlatga 250 ming sentnerdan ortiq pilla topshirilgani qayd etilgan. Biroq ayollar mehnati erkaklarga nisbatan kamroq baholangan. Tadqiqotlarda ayollarning o'rtacha daromadi erkaklarnikidan 30–40 foiz kam bo'lgani ko'rsatiladi. Shunga qaramay, ko'plab ilg'or ayol mehnatkashlar davlat mukofotlari va faxriy unvonlar bilan taqdirlangan.

Qishloqlarda infratuzilmaning rivojlanishi aholining madaniy hayotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Yangi maktablar, kutubxonalar va klub binolarining qurilishi natijasida aholining savodxonlik darajasi oshib bordi. Ayrim qishloqlarda kino namoyishlari va

madaniy tadbirlar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Bu esa qishloq aholisining ijtimoiy-madaniy hayotida muhim o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi.

Turar joy qurilishi va infratuzilma. 1945–1965-yillarda Farg'ona vodiysi qishloqlarida turar joy qurilishi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Urush oqibatida yuzaga kelgan vayronagarchiliklar sababli ko'plab qishloqlarda uy-joy fondi yaroqsiz holga kelgan edi.

1959–1961-yillardagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, har yili o'rtacha 3500 dan ortiq yangi uy-joy foydalanishga topshirilgan bo'lib, ularning katta qismi qishloq hududlariga to'g'ri kelgan.

Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida yangi qishloq massivlari qurilib, ayrim uylar elektr energiyasi va suv tizimlari bilan ta'minlangan. Biroq turar joy qurilishida jiddiy muammolar ham mavjud edi. Ko'plab uylar loy g'ishtdan qurilgan bo'lib, ularda kanalizatsiya, ichimlik suvi va gaz tizimi mavjud emas edi. 1965-yilga kelib Farg'ona vodiysidagi uylarning atigi 22 foizi ichimlik suvi tizimiga ulangan. Qurilgan namunaviy uylarning aksariyati ilg'or mexanizatorlar va brigadirlarga berilgan bo'lsa, oddiy kolxozchilar eski uylarida yashashda davom etgan [1].

Qishloqlarda infratuzilmaning rivojlanishi aholining madaniy hayotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Yangi maktablar, kutubxonalar va klub binolarining qurilishi natijasida aholining savodxonlik darajasi oshib bordi. Ayrim qishloqlarda kino namoyishlari va madaniy tadbirlar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Bu esa qishloq aholisining ijtimoiy-madaniy hayotida muhim o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi.

Farg'ona viloyatida arxiv tizimining rivojlanishi. Farg'ona viloyati davlat arxivi XX asr davomida bir necha bosqichlarda shakllangan. 1925-yildan boshlab viloyat arxiv byurolari tashkil etilib, keyinchalik ular tumanlararo davlat arxivlariga aylantirilgan.

1939-yilda SSSR NKVDning 208-sonli buyrug'i asosida Farg'ona viloyat davlat arxivi rasman tashkil etilgan.

1962-yilda Farg'ona vodiysida Qo'qon, Marg'ilon va Farg'ona tuman-shahar davlat arxivlari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda Farg‘ona viloyati davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlar nafaqat tarixchilar, balki iqtisodchilar, sotsiologlar va boshqa tadqiqotchilar uchun ham muhim ilmiy manba hisoblanadi. Arxiv materiallari orqali ma’lum bir davrning iqtisodiy ko‘rsatkichlari, aholi turmush darajasi va davlat siyosatining natijalarini chuqur tahlil qilish mumkin. Shu sababli arxiv hujjatlarini asrab-avaylash va ularni ilmiy muomalaga keng jalb etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur arxivlarda qishloq xo‘jaligi, kolxozlar faoliyati, turar joy qurilishi va aholining ijtimoiy hayotiga oid minglab hujjatlar saqlanmoqda.

Davlat arxiv hujjatlari Farg‘ona vodiysi qishloq hayotini o‘rganishda eng muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur hujjatlar orqali urushdan keyingi yillarda qishloq xo‘jaligi tizimi, kolxozlar faoliyati, aholining turmush darajasi, pensiya ta‘minoti, ayollar mehnati hamda turar joy qurilishi bilan bog‘liq jarayonlarni ilmiy asosda tadqiq etish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, arxiv materiallari o‘sha davrda amalga oshirilgan davlat siyosatining qishloq aholisi hayotiga qanday ta‘sir ko‘rsatganini aniq fakt va statistik ma‘lumotlar asosida yoritib beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1945–1965-yillarda Farg‘ona vodiysi qishloqlarida iqtisodiy tiklanish jarayoni murakkab sharoitda kechgan. Urush oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, paxtachilikni rivojlantirish, yangi yerlarni o‘zlashtirish va irrigatsiya tizimlarini kengaytirish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirilgan [2]. Shu bilan birga, kolxoz tizimining kuchayishi qishloq aholisining mehnat faoliyati va ijtimoiy hayotida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan.

Maqolada tahlil qilingan manbalar asosida kolxozchilarning mehnatiga haq to‘lash tizimi dastlab sust bo‘lganligi, keyinchalik esa pul shaklidagi rag‘batlantirish tizimi joriy etilishi qishloq aholisi daromadining oshishiga xizmat qilgani aniqlandi [2]. Pensiya tizimining joriy etilishi esa qishloq aholisining ijtimoiy himoyasini mustahkamlab, ayniqsa urush qatnashchilari, nogironlar va keksalarning moddiy ahvolini yaxshilashda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, tadqiqot davomida ayollar mehnatining qishloq xo‘jaligidagi o‘rni yuqori bo‘lgani, biroq ularning mehnati yetarli darajada baholanmagani kuzatildi. Paxtachilik va pillachilik sohalarida ayollar asosiy ishchi kuchi sifatida faol

qatnashgan bo‘lsalar-da, ularning ijtimoiy himoyasi va mehnat sharoitlarida qator muammolar mavjud bo‘lgan [2].

Turar joy qurilishi va infratuzilma masalalari ham qishloq hayotining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Arxiv hujjatlarida qishloqlarda yangi uy-joylar qurilishi, elektr va suv tarmoqlarining bosqichma-bosqich rivojlantirilgani qayd etilgan bo‘lsa-da, ko‘plab hududlarda ichimlik suvi, gaz va kanalizatsiya tizimlari yetarli darajada shakllanmagani kuzatiladi [1].

Xulosa qilib aytganda, davlat arxiv hujjatlari Farg‘ona vodiysi qishloq hayotining tarixini haqqoniy va ilmiy asosda o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Ushbu hujjatlar nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni yoritadi, balki o‘sha davrdagi aholining kundalik turmushi, mehnat sharoiti va yashash darajasi haqida ham muhim ma’lumotlarni beradi. Shu sababli arxiv materiallarini chuqur o‘rganish Farg‘ona vodiysi tarixini tadqiq etishda dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sobirov J.Z. “Urushdan keyingi yillarda Farg‘ona vodiysi qishloqlarida turar joylar qurilishining umumiy ahvoli (1945–1965-yillar)”. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. Volume 5, Issue 7, 2025.
2. “Qishloqlarda mehnatga haq to‘lash va pensiya tizimidagi o‘zgarishlar (1945–1965-yillar: Farg‘ona vodiysi viloyatlari misolida)”. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. 2025.
3. Xolboyev M.K. “Farg‘ona viloyatida arxiv organlarining shakllanishi va rivojlanishi tarixi”. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. Volume 4, Issue 10, 2024.
4. O‘zbekiston SSR statistik to‘plamlari (1945–1965-yillar).
5. Yusupov U., Aliyev A. O‘zbekiston arxivlari. – Toshkent.:Tasvir, 2021. – 496 b.
6. Совет Ўзбекистон китоби. 1945–1950 йиллар. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1951. 223-b.
7. Совет Ўзбекистон китоби. 1956–1958 йиллар. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1959. 104-b.



8. Совет Ўзбекистон китоби. 1959–1961 йиллар. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1962. 53-б